MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



"BIOTEXNOLOGIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI"

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-TEXNIK ANJUMAN TO‘PLAMI





28-29-MART
2025-YIL

doi

Google Scholar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

BIOTEXNOLOGIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI

RESPUBLIKA ILMIY ANJUMANINING TEZISLAR TO‘PLAMI

28-29 mart 2025 y

***

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ДЖИЗАКСКИЙ ФИЛИАЛ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА

СБОРНИК ТЕЗИСОВ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

«ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ БИОТЕХНОЛОГИЙ»

28-29 марта 2025 г.

JIZZAX – 2025

moylari farmatsevtika, kosmetika va oziq-ovqat mahsulotlarida sifatni ta‘minlash uchun ishonchli texnikalar bilan ajralib turishi kerak. Ushbu tadqiqot GC-MS texnikasi orqali LEO ning uchuvchan tarkibini aniqladi. LEO ning asosiy tarkibiy qismlari linalol (28,44%) va linalil asetat (17,12%) sifatida aniqlandi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqotda qo‘llaniladigan linaloolning yuqori qiymati va LEO tarkibida kamforaning yo‘qligi uning yuqori sifatini ko‘rsatadi va uni oziq-ovqat, ichimliklar, aromatizatorlar, farmatsevtika sanoatida ishlatishga yaroqli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Adam, K.L., 2006. Lavanda ishlab chiqarish, mahsulotlar, bozorlar va ko'ngilochar fermalar, https://naturalingredient.org/wp/wp contentlaploads/lavender.pdf, Kiritilgan: 22.09.2023
2. Adaszyńska-Skwirzyńska, M., Szczerbińska, D., 2019, Lavanda (Lavandula angustifolia) efir moyi ichimlik suvi qo'shimchasining ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga, qon biokimyoviy kimyoviy ko'rsatkichlariga, broyler tovuqlarida yonbosh mikroflomiga ta'siri Parrandachilik fanlari, 963 (1): 958 (1)
3. Aparisio Ruiz, R., Garsiya Gonsales, D.L., Morales, M.T., Lobo Prieto, A., Romero, 1, 2018 Bokira zaytun moyidagi uchuvchi birikmalarni aniqlash uchun tasdiqlangan ikkita analitik usullarni taqqoslash: GC-FID va GC-MS. Talanta, 187: 133-141.
4. Aei, A.D., 2010. Endemikning yangi rekordi va tarqalishi. Thymus cilicicus Boiss. & Asal. Turkiyadagi B3 va C3 kvadratlari uchun, Turk dala ekinlari jurnali, 15(1): 40-42
5. Baydar, H., 2009. Lavanda, dorivor va aromatik o'simliklar fan va texnologiyasi (34 matbuot). Sulaymon Demirel universiteti matbuoti №: 51, 274-278, Isparta.

TIBBIYOTDA SUD-TIBBIY EKSPERTIZA VA ZAMONAVIY METODLAR

Yo‘lchiyeva M.Sh., Eshonqulova M.A., Soatov B.B.
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
E-mail: munojotyolchiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda tibbiyotda, sud -tibbiy ekspertiza va zamonaviy metodlar tahlili, tibbiyot va huquq sohalarining kesishgan nuqtasi ekanligi aytib o‘tilgan. Sud jarayonlarida guvohlik sifatida va haqiqatni aniqlash vositasi sifatida muhim rol o‘ynashi va an’anaviy ekspertiza usullari ko‘plab yillik tajriba va amaliyotga asoslangan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda ilmiy texnologiyadagi yutuqlar (kompyuter tomografiyasi, magnit-rezonans tomografiyasi, molekulyar biologiya, genetik tahlillar va zamonaviy toksikologik metodlar) sud-tibbiy

ekspertiza jarayoniga sezilarli o‘zgarishlar bayon qilingan. Ushbu tezisning dolzarbligi shundaki, zamonaviy metodlarni integratsiyalash orqali ekspertiza natijalarining aniqligi va ishonchliligi sezilarli darajada oshishidan iborat.

Kalit so‘zlar: ekspertiza, tibbiy-kriminalistika, gistopatologik, mikroskopik, tomografiya, integratsiya, korrelyatsion, protokol.

Kirish. Hozirgi zamon sud tibbiyoti fani alohida tibbiyot fanlaridan biri bo‘lib, uning maqsadi tergov organlari faoliyatida sud va tergov jarayonida jinoyat va fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqish paytida paydo bo‘ladigan tibbiyotga va biologiyaga oid savollarga javob berishdan iboratdir[1]. Ekspertiza bu – ilmiy amaliy tekshiruv usuli bo‘lib, uning maqsadi o‘zining oldiga qo‘yilgan qandaydir aniq savolga javob berishdan iboratdir. Bunday tekshiruv o‘tkazuvchi va xulosa beruvchi mutaxassisga ekspert deyiladi. Sud tibbiyoti ekspertizasi esa shifokorlar tomonidan bajariladigan ilmiy - amaliy tekshiruv usuli bo‘lib, uning maqsadi sud va tergov organlari tomonidan qo‘yilgan tibbiyotga va biologiyaga oid savollarga o‘zining xulosasi bilan javob berishdan iboratdir[2]. Bunday vazifalarni bajaruvchi shifokorlarga sud tibbiyoti ekspertlari va shifokor-ekspertlar deyiladi. Shunday qilib, sud tibbiyoti ekspertizasi sud tibbiyotining amaliyotga qo‘llanilishidir. Sud tibbiyotida har xil tekshiruv usullari qo‘llaniladi. Ularning ko‘pchiligi sud tibbiyoti uchun muhimdir. Masalan, dog‘da qon borligini aniqlashning guruhlarga, turlarga aloqadorligini aniqlash, o‘q otar qurollari bilan jarohatlanishda, murdalarda kirish va chiqish teshiklarining diagnostikasi, qaysi masofadan otilganlikni aniqlashda va boshqalarda alohida ahamiyatga egadir[3]. Hozirgi davrda sud tibbiyoti laboratoriyalarida tibbiy-kriminalistika tekshiruv usullari ham keng qo‘llanilmoqda. Bu usullar jarohatlangan ob’ektdagi jarohatlovchi asbobning turi, o‘limning vaqti, jarohatlar mexanizmi, noma’lum shaxs murdasining shaxsini hamda jarohatlanishning tiriklik belgilarini aniqlashda keng qo‘llaniladi[4]. Bundan tashqari quyidagi metodlar ham qo‘llaniladi:

1. An’anaviy sud-tibbiy ekspertiza: Gistopatologik va mikroskopik tahlillar, toksikologik analizlar, klinik testlar yordamida namuna tahlili.
2. Zamonaviy metodlar:
   - Kompyuter tomografiyasi va MR yordamida ichki tuzilmani ko‘rish.
   - Molekulyar biologiya usullari, xususan, PCR va 16S rRNA sekvenerlash orqali genetik tahlil.
   - Ilg‘or toksikologik testlar yordamida zaharlanish darajasini aniqlash.
3. Integratsiyalash:
   - An’anaviy va zamonaviy metodlarni yagona tahliliy protokolga integratsiyalash.
   - Har bir metod natijalari orasida statistik va korrelyatsion tahlil o‘tkazish[5].

Bunda quyidagi jihozlar zarur hisoblanadi.

Ekspertiza namunalar**:** Jarohat, o‘lim, zaharlanish va boshqa sudga taalluqli tibbiy holatlarga oid hujjatlar va real amaliyotda olingan na’muna materiallar.

Tahlil asbob-uskunalari: Laboratoriya uskunalari (mikroskop, spektrofotometr, autoklav), kompyuter tomografiyasi va magnit-rezonans apparatlari, molekulyar diagnostika uchun zarur bo‘lgan uskunalar.

Reagentlar va diagnostika kitobxonchalari: PCR reagentlari, genetik markerlar, toksikologik analiz reagentlari va boshqalar kerak bo‘ladi[6].

Xulosa qilib aytganda, tibbiyotda sud-tibbiy ekspertiza jarayonida zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi ekspertiza natijalarining aniqligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. An’anaviy va ilg‘or usullarni integratsiyalash orqali sud jarayonlarida ishonchli va ilmiy asoslangan tahlil natijalariga erishildi. Ilmiy yutuqlar va texnologik innovatsiyalar sud jarayonlarida adolatni ta’minlashda asosiy omil hisoblanishi keng yoritib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Iskandarov A.I. Sud-tibbiyot fanidan test nazorati. II qism: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T., 1994, 114 s.
2. Iskandarov A.I., Eshmuradov B.A., Iskandarov A.R. To‘mtoq va o‘tkir jismlardan shikastlanishlarning sud-tibbiy ekspertizasi: O’quv-uslubiy qo‘llanma.– T., 1998, 10 s.
3. Shamsiyev E.S., Iskandarov A.I., Zufarov R.A., Talimbekova V.K. Sud-tibbiy fanlari: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T., 2004. – 528 s.
4. Berejnoy R.V. Sudebno-meditsinskaya ekspertiza otravleniy texnicheskimi jidkostyami. **–** M.: Meditsina, 1977, 207 s.
5. Voqea sodir bo‘lgan joyda topilgan o‘likni tashqi kuzatishda sud-tibbiyoti ekspertining vazifalari: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. /A.I.Iskandarov, D.R.Kuldoshyev, B.J.Abdaxatov, K.U.Kodirov. – T., 2004, 9 s.

BUYRAKDAGI O’ZGARISHLAR VA MODDALAR ALMASHINUVI

Yo‘ldosheva P.L., Suvanqulova E.E
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali
E-mail: yuldoshevapokizabonu@mail.com

Annotatsiya; Maqolada buyrakdagi o’zgarishlar ya’ni kasalliklar ularning kelib chiqish sabablari keltirilgan va buyrakdagi moddalar almashinuvi haqida ma’lumotlar ko’rsatib o’tilgan. Buyraklar moddalar almashinuvi va organizmning homeostazini saqlash uchun asosiy rol o'ynaydi. Shu tarzda, buyraklar organizmning barcha tizimlari bilan o‘zaro bog‘lanib, organizmning sog‘lom va barqaror ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.